

KORRUPSIYA ASR VABOSI

Turdiqulova Durdona*durdonaturdiqulova@gmail.com**Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi***Turayeva Dildora Shuhratovna***Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi**E-mail: dildoraturayeva865@ mail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, korrupsiya va uning oqibatlarini, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bugungi kunda qilinayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jamiyat, korrupsiya, siyosat, iqtisodiyot, huquq, davlat, faoliyat

Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat bo'lib, mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Aytib o'tish joizki, bu zararli illat kattami, kichikmi, badavlat yoki kambag'al bo'lishiga qaramay, barcha mamlakatlarda ildiz otgan bo'lib, ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etadigan chora topilgan emas.

Korrupsiya tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan bo'lsada, biroq bugungi rivojlangan jamiyatda korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu o'rinda yana bir ma'lumot: korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olingan. Bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lumki, qadimgi davlatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliги davlatning obro'siga juda katta putur yetkazganligi sababli bu hodisa vatan fidoiylarini qattiq tashvishga solgan. Shu boisdan, dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliги qattiq qoralanadi. Xalqimizda korrupsiya so'zi ko'pincha pora deb ham ataladi. Hayotimizda kuzatiladigan eng yomon odatlar ham mana shu korrupsiyaga borib taqaladi. Biror bir

joyga ishga kirmoqchi bo'lsangiz, eng birinchi navbatda, cho'ntagingizga ya'ni pulingizga e'tibor beriladi. Tariximizga yuzlanamiz sharq mutaffakirlaridan biri Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri bu poraxo'rlik, deb qayd etgan. Poraxo'rlik Usmoniylar xalifaligigacha ham bo'lgan. Avvalgiga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilgan. Lekin X asrning o'rtalariga kelib u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan ham vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo'lgan edi.

Korrupsiya mamlakat taraqqiyotini ortga surib, kelajkni xavf ostida qoldiradi. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi korrupsion holatlar bugungi kunda yetuk mutaxassislar, jahon andozasi darajasidagi kadrlar tayyorlashni asosiy maqsad qilib olgan mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Dunyoda rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlagan har bir davlat eng avvalo korrupsiya, ta'magirlik, poraxo'rlik kabi salbiy illatlarga qarshi murosasiz kurash olib boradi. Aks holda, bunday jirkanch illatlarning tomir otishiga yo'l berilsa, o'sha joyda taraqqiyot va rivojlanish boy beriladi.

Korrupsiya – saraton kasalligi o'xshaydi, u bugungi kunda dunyodagi ko'plab muammolarimizning negizini tashkil etmoqda. U ish joylarini yo'q qiladi va o'sishni to'xtatadi, har yili jahon iqtisodiyotiga milliard dollarlab zarar etkazadi. U nochor ahvoldigilarni qashshoqlik botqog'iga tortmoqda. Bunga sabab esa, korrupsiya avj olgan mamlakatlardagi hukumat rahbarlari tomonidan davlat mablag'lari yeb yuborilmoqda, mansabdor shaxslarning bu xatti-harakatlari mehnatkash odamlarga haqli ravishda tegishli bo'lgan iqtisodiy o'sishning daromadlari va foydalarini olishlariga yo'l qo'ymayapti.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad xalqimizni hayotdan rozi qilish va eng muhimi, davlat idoralari bevosita xalq ichiga kirib borib, muammolar bilan tanishayotgani o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Albatta bu jarayonda rahbarlarning mas'uliyatini oshirish va o'ziga bildirilayotgan ishonchni oqlash hamda ta'magirlikka yo'l qo'ymaslik borasida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilindi.

Respublikamizda bu borada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarga qaramasdan ming afsuski, ayrim rahbarlar orasida korrupsiyaga berilish, ta'magirlik holatlari uchrab turgani kishini taa'jubga soladi.

Qonunlarni bilmaslik biror kishini jazodan qutilishiga bahona bo'lolmaydi. Kimdir bilib, kimdir bilmasdan deganlaridek bunday salbiy illatlarning ko'chasiga kirib qolganliklarini sezmay qoladilar. Achinarli tomoni shundaki, ayrim nufuzli mansab kursisida o'tirganlar bila-turib korrupsiyaga, poraxo'rlikka, tanish-bilishchilikka berilib ketayotgani ijtimoiy hayotimizga jiddiy xavf solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida korrupsiya masalasiga to‘xtalib o‘tar ekan, so‘nggi 5 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga olib chiqilganini ma’lum qildi. Senat raisi rahbarligida korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etilganini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham faol ish olib borilayotganini ta’kidladi. Kasalni davolagandan ko‘ra uni oldini olish kerak deganlaridek, biror bir jinoiy ish nafaqat korrupsiya, balki o‘g‘irlik, qotillik va shunga o‘xshagan mayda bezoriliklar ro‘y berganda darhol IIV organlariga yoki maxsus qisqa raqamlarga xabar berish zarur.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021.211- bet.
2. Xalq so‘zi gazetasi. 26-aprel 2018-yil
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2.01.2024-yildagi PQ-38-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
4. Dildora Shuhratovna Turayeva.Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqot san’atining ahamiyati.”SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL.January 2023,Volume 4,Issue 1.P-836-838
5. Turayeva Dildora Shuhratovna.The Place of Communication in Personal Life.Eurasian Scientific Herald.2022-04-13.Volume 7.P-54-57
6. Turayeva Dildora Shuhratovna.Muloqot san’ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida.YANGI O‘ZBEKISTON,YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 1(5)194-196,2024
7. Turayeva Dildora Shuhratovna.YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI.SO’NNGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI.2025/4/13.B-28-30
8. Aminjon Qudratovich Aymatov .THE LAW OF INCREASING THE ROLE OF SUBJECTIVE FACTORS IN THE FORMATION OF AESTHETIC ATTITUDE TO NATURE .Academicia Globe:Inderscience Research.Volume 2,Issue 5,May,2021.P-548-553
9. Aminjon Qudratovich Aymatov. SOME ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AND AESTHETIC PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT.International Scientific Journal Theoretical & Applied Science.2017,Issue 04,Volume 48.P-79-82
10. Aminjon Qudratovich Aymatov. Turayeva Dildora Shuhratovna. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences.Vol 10/No 12/Dec 2021.P-5-9
11. Turayeva Dildora Shuhratovna . International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from London,The UK.May 10,2022.
12. Yoldasheva Xurshida, & Turayeva Dildora Shuhratovna. (2025). TIBBIY EKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 90(1), 369-371. <https://journalss.org/index.php/new/article/view/8954>